

Toshloq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi hamda Ulug`bek kommunal xususiy korxonasi o`rtasida ko`chmas mulkni ijaraga olish to`g`risidagi shartnomaga

YURIDIK XULOSA

Shartnoma miqdori: **3 000 000** (uch million) so`m.

Toshloq tumani Yuridik xizmat ko`rsatish markazi bosh yuristkonsulti J.Nazarov yuqoridagi shartnoma yuzasidan xuquqiy ekspertiza o`tkazdim. Huquqiy ekspertiza O`zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to`g`risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan o`tkazildi.

Shartnomada ko`rsatilgan munosabatlarning amaldagi qonun normalari talablariga mos kelishi, shartnoma shartlarining qonun xujjatlari talablariga mos kelishi, shartnoma bo`yicha taraflarning javobgarligi me`yori va nizolarni hal etish tartibi qonun xujjatlari talablariga mos kelishi huquqiy ekspertizaning predmeti xisoblanadi.

Huquqiy ekspertiza o`tkazilayotgan vaqtda O`zbekiston Respublikasining amalda bo`lgan hamda yuridik xizmat uchun foydalanish mumkin bo`lgan barcha qonun xujjatlari o`rganib chiqildi.

Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:

Shartnoma ko`rsatilgan munosabatlar O`zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to`g`risida"gi Qonuni xamda O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Shartnoma shartlari O`zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to`g`risida"gi Qonunning 6,7,15-moddalari hamda O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-385-moddalari talablariga mos keladi.

Shartnoma bo`yicha taraflarning javobgarligi me`yori va nizolarni hal etish tartibi O`zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to`g`risida"gi Qonunning 24-moddalari hamda O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324-339-moddalari talablariga mos keladi.

Yuqoridagilarga asosan, mazkur shartnoma qonun xujjatlari muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Toshloq tumani Yuridik xizmat markazi bosh yuristkonsulti:



J.Nazarov